

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA BADIY MATNLAR UCHUN
DARAJALI TOPSHIRIQLAR YARATISH**

Abrayeva Mehrangiz Bekmurza qizi

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi
yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan badiiy matn ustida ishlashda darajali topshiriqlardan foydalanish, o'quvchilarni faqat qonun-qoidalarini yodlatish yoki o'rgatish emas, balki ularni fikrlashga, o'z fikrini ma'noli va ifodali, izchil, ravon hamda to'g'ri bayon etishga o'rgatish haqida fikr bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *Ijodiy fikr, darajali topshiriq, matn, badiiy, tahlil, to'g'ri bayon etish, nutqi ravon, matn yaratish.*

*Ilmni avvali sukut, so'ng eshitish, so'ng yod olish,
so'ng amal qilish, so'ng tarqatish.*

Imom G'azzoliy

Badiiy tahlil - matn tahlilining murakkab turlaridan bo'lib, unda xilma-xil vazifalar bajariladi. Chunki bu tahlildan kuzatiladigan maqsad asarning xususiyatlarini o'rganishdir. Badiiy matnda kishilarning munosabatlar doirasida bir-biri bilan bog'langan kishilar hayotining ma'lum davridagi voqealari tasvirlanadi. Bu voqealarda davrning siyosiy ijtimoiy, madaniy va ahloqiy hayoti o'z aksini topadi. Matnning adabiy tahlilida quyidagi maslalarga alohida e'tibor berilishi lozim.

Hikoya, masal, she'rning mazmunini to'g'ri idrok etish, shuningdek, matnning emostional ta'sirini oshirish uchun ifodali o'qish katta ahamiyatga ega.

Asar matni bilan tanishtirishning bir necha usullari mavjud. Ular quyidagilar:

1. Matn o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi (ba'zan asar matni audio orqali ham eshittirilishi mumkin). O'quvchilar matn mazmuni bilan tanishtirilgach, o'qituvchi ularga boshlag'ich taassurotlarini aytishni talab qiladigan savollar beradi. Masalan, «Hikoyaning qaysi o'rni sizga yoqdi?», «Qahramonlardan qaysi biri sizga ayniqsa yoqdi?», «Hikoya o'qilganda siz qaysi o'rinda juda xursand bo'ldingiz?» kabi va h.

2. Yaxshi o'qiydigan o'quvchiga o'qitish. O'quvchining oldindan o'qituvchi o'qish yo'llari bilan tanishtiradi va uning o'qishini o'zi kuzatadi, xato va kamchiliklarini bartaraf etadi. Shundan so'ng tayyorlangan o'quvchi sinf jamoasiga o'qib beradi.

3. Og‘zaki qayta hikoyalab, so‘zlab berish. Bu o‘qituvchidan alohida tayyorgarlikni talab etadi. Chunki asar matniga yaqinlashtirib, badiiy vositalarini to‘liq saqlagan holda hikoyalash zarur, aks holda o‘quvchilarning badiiy asarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishi susayadi.

4. Yoddan ifodali aytib berish. She‘riy asarlar yoddan aytib berish orqali tanishtirilsa, o‘quvchi o‘qituvchining mahoratini yuqori baholaydi. O‘zida ham yod olishga qiziqish paydo bo‘ladi.

5. Asarning muhim dialogli o‘rinlarini yoki butun asarni sahnalashtirish orqali tanishtirish.

6. Asarning bir qismini (muammoli o‘rniga) o‘qituvchi o‘qib beradi, qolgan qismini o‘quvchilar ichda mustaqil o‘qiydilar.

8. Asar musiqa sadolari ostida o‘qib berilishi ham mumkin. Bu asarning ta‘sirini kuchaytiradi, o‘quvchilarning estetik didini tarbiyalaydi, ularni toliqishdan saqlaydi.

Boshlang‘ich sinflarda to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qishga o‘rgatish vazifasi o‘quvchilarda asarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi. O‘qish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishlashning o‘zaro bog‘liqligi asarni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab beradi.

O‘quvchilarni matnni tahlil qila olishi DTS talablaridan biridir. Matn yaratishga o‘rgatish va uni tahlili qilish bir qator ta‘limiy vositalarini ishga solishni ta‘lab etadi. Ana shu vositalardan biri rasmlar ustida ishlashdir. Ma‘lumki rasm o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda muhim vositadir. Chunki o‘quvchi bitta rasimga bir necha sarlovha topish rasmni kuzatib berilgan savollarga javob berish rasm asosida og‘zaki suhbat, matnni tuzish, matnni qisqartirib yoki kengaytirib hikoya qilish matnni qismlarga bo‘lish matnni asosiy mazmunini aniqlash, matnda qatnashuvchi shaxslarni tabiat manzaralarini tasvirlovchi so‘z va iboralarni tahlil qilish kabi ijodiy – amaliy ishlarni bajarilishi mumkin .

Badiiy matn tahlilida tasvirlangan voqelik va shu voqelikka yozuvchining munosabati aniqlanadi. Masalan: 4-sinf o‘qish savodxonligi darsligidagi “Arining qasosi” matnida olijanob fazilatlarini ulug‘lash, adolat va do‘stlik, tabiatga, hayvonlarga, qushlarga, hasharotlarga muhabbat erkinligi asarni g‘oyaviy mazmunini tashkil qiladi.

“Asalarining qasosi” mavzusi uchun darajali topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasini ko‘rib chiqamiz.

1-topshiriq. Titish sexini bilasizmi? U yerda nima ishlar qilinadi?

2-topshiriq. Arilar haqida nimalar bilasiz?

3-topshiriq. Agar shu yerda siz ham bo'lganingizda nima qilgan bo'lar edingiz?

4-topshiriq. O'tkir arilar inini kovlab to'g'ri ish qildimi? Fikringizni asoslovchi 3 ta gap yozing.

5-topshiriq. Test. Quyidagilardan foydali hashoratlarni aniqlang.

- A) Chigirtka, pashsha
- B) Ari, chumoli
- C) Pashsha, chivin

6-topshiriq. Arilar nima uchun Sardorga qarashmadi? Sizningcha arilar bilishdimikin ularning uyasini kim kovlaganini. Demak, arilar aqllimi? Shu haqidagi mulohazalaringizni aniq faktlar bilan asoslab, 2 ta fikr yozing.

7-topshiriq. Asar qahramonlarni tahlil qling.

8-topshiriq. Sardorga nimalar degan bo'lardingiz?

1. Bu qilgan ishing juda ham noto'g'ri!
2. Seni deb meni ham arilar chaqib tashlardiyu!
3. Endi sen bilan o'rtoq bo'lmayman.
4. O'rtoqjon, sen ikkinchi marta bunaqa ishlarni qilmagin, bu ishing yaxshi emas.

5. Ustozga borib hamma ishingni birma-bir aytib beraman.

9-topshiriq. Nima deb o'ylaysiz arilar nima uchun aylanishdi?

10-topshiriq. Arilar haqida nimalar bilasiz, balki arilar bilan bog'liq birorta taassurotingiz bordir, yozingchi.

11-topshiriq. Test. Arilar qaysi faslda asal berishadi?

- A) Bahor
- B) Qish
- C) Yoz
- D) Kuz

12-topshiriq. Hikoya mazmunini ochib beruvchi 3 ta eng asosiy gaplarni tartib bilan yozing.

13-topshiriq. Sadoqatli do'st bo'lish uchun insonda qanday fazilatlar bo'lishi lozim deb o'ylaysiz?

15-topshiriq. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

Boshlang'ich sinf o'quvchilarga shaxsiy kuzatishlari tajribalarini ko'rgan eshitgan voqea - hodisalari o'qigan ertak va hikoyalardan olgan ta'surotlari asosida kichik hikoyalar tuzish hamda matn yaratish topshirilsa bunday usul ham juda katta samara beradi. O'quvchilar esa tevarak- atrof tabiat va hayotda bo'layorgan voqealarni kuzatish ertak va hikoyalarni doimo o'qib o'rganib borishga odatlanadi, hamisha izlanishda bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Norpo‘latova X. “Ta’limni faollashtiruvchi metodlar”, Metodik qo‘llanma TermDU. 2010-yil
2. Rabbonayeva D.T. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini PIRLS tadqiqotiga tayyorlash bo‘yicha mashq daftari”. Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va o‘quvchilari uchun uslubiy qo‘llanma. – Samarqand viloyati pedagogika markazi. 2024-yil